

O‘ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK NAZORATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

Najimov Farxodjon Biloldinovich

Andjin davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Tell: +998911702232

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoatchilik nazoratini tushunchasi, huquqiy asoslarini yaratilish bosqichlari, tushuncha borasida olimlarning qarashlari tahlil qilingan. Davlat organlari faoliyatida jamoatchilik nazoratini joriy qilish masalalari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik nazorati yuridik ensiklopediya, davlat nazorati, harakatlar strategiyasi, nazorat faoliyati.

Jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega bo‘lsada, ilmiy tushuncha sifatida fanga ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan biri bo‘lgan T.Tard tomonidan olib kirilgan. Uning tavsifiga ko‘ra, mazkur tushuncha jinoyatchining xulqini qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo‘llaniladigan usullar yig‘indisini ifodalagan. Amerikalik sotsiologlar E.Ross, R.Park tadqiqotlarida jamoatchilik nazorati shaxsga uning xulq-atvorini ijtimoiy me‘yorlarga mos kelishtirish maqsadida o‘tkaziladigan ta’sirni anglatadi. Davlat va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatishning zarurligini buyuk alloma va faylasuflar ham ta’kidlab o‘tishgan. Masalan, Arastu o‘zining asarlarida xalqning hukmdorlar, mansabdor shaxslar faoliyati ustidan nazoratini davlatning siyosiy barqaroqligi hamda rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri deb hisoblagan. Abu Nasr Farobiy esa “hukmdorlar xalq oldida hisobot berib turishlari va ularning qonunlarga so‘zsiz bo‘ysunishlari zarur [1. 34-b] ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Bugungi kunda demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri unda jamoatchilik nazoratining qay darajada o‘rnatilgani bilan bog‘liq hisoblanadi. Demokratik jamiyat madaniy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy asoslaridan qat’i nazar, fikrlar xilma-xilligi, qonun ustivorligi, siyosiy teng huquqlilik, jamoatchilik nazorati va hukumatning jamiyatga hisobot berishi singari tamoyillar va institutlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Demokratik davlatlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bunday davlatlarda jamoatchilik nazorati o‘zining ma’lum bir ko‘rinishi bilan demokratiyaning asosiy tayanchi bo‘lib, mamlakatda qonun ustuvorligiga xizmat qilmoqda. Shu bois jamoatchilik nazorati tushunchasini ilmiy-metodologik jihatdan

o'rganish, bu tushuncha mazmun-mohiyatini ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish ushbu tadqiqot ishining dastlabki vazifalaridan hisoblanadi. S.Taxoyeva Rossiya Federatsiyasi Jamoatchilik palatasining jamoatchilik nazorati funksiyasini izohlash davomida, jamoatchilik nazoratiga hukumat, ijroiya hokimiyati organlari va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati, shuningdek ommaviy axborot vositalari tomonidan so'z erkinligiga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat sifatida ta'rif beradi[2]. Mazkur tushunchaning ma'nosini kengroq ifodalash maqsadida yuqorida keltirilgan ta'riflarga qo'shimcha ravishda "O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi"da keltirilgan ta'rifni keltirishni ma'qul topdik. "Jamoatchilik nazorati -bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlarfaoliyati ustidan, fuqarolar, ularning birlashmalari, o'zini o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari, shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan faoliyat[3]. jamoatchilik nazorati subyektlari (jamoat birlashmalari ham jamoatchilik nazorati subyektlariga kirgani sababli umumiy ma'noda jamoatchilik nazorati subyektlari deb olamiz)davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashish, ularning faoliyati uchun to'siqlar yaratishhuquqi yo'q. Ammo jamoatchilik nazorati subyektlari jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni qonunchilikka muvofiq davlat organlaridan so'rab olishi, jamoatchilik nazorati natijalariga ko'ra takliflar va tavsiyalar tayyorlashi hamda ularni tegishli davlat organlariga ko'rib chiqish uchun yuborishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatleri, jamiyat manfaatleri buzilganligi faktlari aniqlangan taqdirda, materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborishi, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga yoxud qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan tub siyosiy va iqtisodiy islohotlarda o'z aksini topayotgan iqtisodiy siyosat pirovard natijada demokratik islohotlar qilish, kuchli suveren huquqiy davlat barpo etish uchun mustahkam siyosiy va moddiy negiz yaratishga yo'naltirilgan. jamiyatni modernizatsiyalashningasosiy shartlaridan biri xalqning siyosiy madaniyatini yuksaltirish, unga demokratik erkinliklarning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushunib olish hamda uni amalda qo'llash imkoniyatlarini yaratib berishdan iboratdir. Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, siyosiy madaniyat, avvalo fuqarolar, davlat idoralari va uning mansabdor shaxslari, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari hamda o'zini o'zi boshqarish

idoralarining Konstitutsiya va qonunga bo'ysinishidan boshlanadi. Shuning uchun ham biz o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan adolatli fuqarolik jamiyatida nafaqat aholi siyosiy-huquqiy bilimining oshishi, siyosiy ongining yuksalishi, balki, birinchi navbatda, barcha darajadagi mustaqil hokimiyat tarmoqlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, o'zini o'zi boshqarish idoralari faoliyati samaradorligining ortishiga ham alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyatning barcha jabhalarini, ayniqsa siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish yo'lidan borayotgan har bir jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyati yuksak, erkin fikrlaydigan va sog'lom tafakkurga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalashga intiladi. Faqat ana shunday shaxslar yashayotgan jamiyatdagina demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, haqiqiy ko'ppartiyaviylik, fikrlar xilma-xilligi, inson huquq va erkinliklari to'liq ta'minlanadi, insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashash prinsipi hayotning asosiy mezoniga aylanadi. Chunki demokratiyaning ijodkori, uni amalga oshiruvchisi, tarqatuvchisi va rivojlantiruvchisi insondir. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslarining mustahkamlanishi fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlanishini, uning huquqiy asoslari mustahkamlanishini ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz, albatta. Shu tariqa jamoatchilik nazorati instituti konstitutsiyaviy-huquqiy maqomga ega bo'lish barobarida o'z rivojining yangi sifat bosqichiga o'tishi ham boshlandi. Shu bilan birga, qonuniylikni ta'minlash uni amalga oshiruvchilardan huquqiy bilimlarga ega bo'lishni ham taqozo etadi. Zero, Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi"[4]. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasi deb keltirish mumkin. Hamda, 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham bu masalaga, jumladan, jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini mustahkamlash zarurligiga katta e'tibor qaratildi.

Demak, yuqorida keltirilgan ta'riflar va jamoatchilik nazoratining xususiyatlaridan kelib chiqib, jamoatchilik nazorati tushunchasiga kengroq ta'rif berish maqsadga muvofiq bo'ladi. "Jamoatchilik nazorati - jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan davlat hokimiyati va organlari, ular mansabdor shaxslari, tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'i nazar boshqa tashkilotlar tomonidan o'z faoliyati davomida qonuniylikka rioya etishi hamda inson huquq va

erkinliklari va qonuniy manfaatlari kafolatlariga rioya etishilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat” deb aytishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. “Fozil odamlar shahri”. T.: Xalq merosi.
2. Тахоева С.С. Конституционно-правовой статус Общественной палаты Российской Федерации: вопросы теории и практики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 12.00.02 - конституционное право; муниципальное право. - Москва, 2009.- С.17,18.
3. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. - Тошкент, Адолат, 2009. -Б. 167.
4. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. /Ўзбекистон Республикасининг сайланган Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. 07.12.2016.
5. О‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni